



ZAMONAVIY ARHITEKTURA VA SHAHARSOZLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Ochilov Alisher Orifovich

Qarshi davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti.

Norqulova Moxigul G'anisher qizi

Qarshi davlat universiteti Arxitektura yo'nalishi 2 kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaharsozlik va arxitektura sohalarining dolzarb muammolari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda O'zbekistonning turli hududlaridan aniq misollar keltiriladi. Shuningdek shaharsozligi va arxitekturasidagi asosiy muammolari echimlariga doir takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *migratsiya oqimining kuchayishi, arxitektura konsepsiyasi, Shaharlar estetikasi, zich qurilish, infrastruktura etishmovchiligi.*

Аннотация: *В этой статье анализируются актуальные проблемы градостроительства и архитектуры с научной точки зрения, а также приводятся конкретные примеры из различных регионов Узбекистана. Кроме того, предлагаются рекомендации по решению основных проблем градостроительства и архитектуры.*

Ключевые слова: *усиление миграционных потоков, концепция архитектуры, эстетика городов, плотная застройка, нехватка инфраструктуры.*

Annotation: *This article analyzes the pressing issues in urban planning and architecture based on a scientific, with specific examples from various of Uzbekistan. It also provides suggestions regarding solutions to the main problems in urban planning and architecture.*

Keywords: *increase migration frow, architectural concert, urban aesthetics, dense construction, lack of infrastructure.*

O'zbekiston oxirgi yillarda urbanizatsiya jarayonini jadallashtirayotgan mamlakatlardan biridir. Aholi sonining barqaror o'sishi, ichki migratsiya oqimining kuchayishi va iqtisodiy faollikning markazlashuvi shaharlarning tez sur'atlarda kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon yangi imkoniyatlar bilan birga shaharsozlik va arxitektura sohalarida bir qator dolzarb muammolarni ham yuzaga chiqarayotir.

Prezedetimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan qabuk qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasii va unga muvofiq qabul qilingan davlat dasturida mamlakat iqtisodiyotini yanada jadal rivojlantirishda iqtisodiyotning lokomotivi sifatida ushbu sohaga, xususan yangi bin ova inshoatlar, ishlab chiqarish obektlari handa xususiy tadbirkorlik, temir va avtomobil uo'llari, turarjoy binolari qurilishida alohida urgu berilgan.

Shaharlar aholisining ortib borishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi va texnologik rivojlanish arxitektarlarni yangi yondashuvlarga undamoqda. Ayniqsa, "yashil"



arxitektura konsepsiyasi jahon miqyosida keng tarqalmoqda. Bu yo'nalishda binolar qurilishida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, issiqlik izolatsiyasi, suv tejovchi tizimlar va ekologik toza qurilish materiallarining qo'llanilishi asosiy mezon bo'lib qolmoqda. Shu nuqtaiy nazardan kelib chiqib quyidagi dolzarb masalalar ustida tadqiqot ishlarini olib borishga harakat qilamiz.

Birinchi navbatda, shaharlarning keskin kengayishi mavjud infratuzilmaning yuklamasini oshirib yubordi. Yangi uy-joy massivlarida maktab, bog'cha, poliklinika, kommunal tizimlar kabi asosiy xizmatlar yetishmaydi. Aksariyat hududlarda suv-ta'minoti, kanalizatsiya va yo'l tarmoqlari eski holatda qolayotganligi ko'plab qulaylik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Bu esa urbanizatsiyaning tartibli boshqarilmayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchi dolzarb masala — shaharlarni bosh reja asosida rivojlantirishdagi muammolardir. Ayrim hududlarda qurilishlar tasdiqlangan loyihalarga mos bo'lmay, arxitektura makoni tartibsizlashib bormoqda. Bu nafaqat estetik ko'rinishning pasayishiga, balki transport, ekologiya va xavfsizlikka ham salbiy ta'sir qiladi. Xususan, yo'llarning torligi va avtomobillar sonining ortishi yirik shaharlarda tirbandliklarning kundalik muammoga aylanishiga olib kelgan.

Shaharlar estetikasi va arxitektura sifati bilan bog'liq muammolar ham dolzarb. Yangi bunyod etilayotgan ko'p qavatli uylar ko'pincha bir-biriga o'xshash, shahar identitetini shakllantirmaydigan "tipovoy" ko'rinishga ega. Milliy va zamonaviy arxitektura uyg'unligi kam uchraydi, jamoat makonlari esa yetarlicha funksional va qulay emas.

Ekologik muammolar ham jiddiylashmoqda. Aksariyat shaharlar hududida ko'kalamzor maydonlar qisqarib, daraxtlarning kesilishi tez-tez kuzatilmoqda. Bu "shahar ichidagi issiq orol" effektini kuchaytiradi, aholi salomatligiga, havoning sifatiga va umumiy yashash qulayligiga salbiy ta'sir qiladi.

Ushbu maqolada yuqoridagi fikrlarimizga aniqlik kiritish maqsadida shaharsozlik va arxitektura sohalarining dolzarb muammolari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda O'zbekistonning turli hududlaridan aniq misollar keltiriladi.

Aholi sonining tez o'sishi va shaharlarning haddan tashqari zichlashuvi katta shaharlar migratsiya oqimi tufayli tez kengaymoqda, infrastruktura bu sur'atga mos ravishda rivojlanmayapti: yo'llar tor, jamoat transporti yetarli emas, kommunal tizimlar eskirgan.

1. Toshkent shahri - Mamlakatning eng yirik megapolisidir. Tabiiy o'sishdan tashqari, ichki migratsiyaning eng katta qismi shu yerga yo'naltiriladi. Ish o'rinlari, ta'lim va xizmatlar sifati sababli aholi tez ko'paymoqda. Shaharning zichligi O'zbekistonda eng yuqori.

2. Samarqand viloyati - aholi soni bo'yicha mamlakatda yetakchi hududlardan. Samarqand shahri va Kattaqo'rg'onda urbanizatsiya darajasi yuqori.



3. Farg'ona vodiysi viloyatlari (Farg'ona, Andijon, Namangan) - O'zbekistonning eng zich aholili mintaqasi. Tabiiy o'sish darajasi yuqori, shaharlar soni ko'p, urbanizatsiya jarayoni tez ayniqsa Farg'ona va Andijon eng zich hududlar qatorida.

4. Qashqadaryo viloyati - so'nggi yillarda sanoatlashuv va ichki migratsiya kuchaygan. Qarshi va Sahrisabz shaharlarida aholi zichligi ortmoqda.

O'zbekiston shahrarsozligining asosiy muammolarini echimini topishda quyidagi sxema orqali takliflar kiritmoqchimiz.

O'zbekiston shahrarsozligining asosiy muammolari



Urbanizatsiya bosimini kamaytirishni asosiy echimlari birinchi navbatda hududiy rivojlanishni kuchaytirish. Katta shaharlarga haddan tashqari migratsiyani kamaytiradi. O'rta va kichik shaharlarda sanoat, xizmat ko'rsatish va infratuzilma rivojlantiriladi. Ish o'rinlari hududlarda yaratiladi.

Aholi punktlarini rejalashtirishni modernizatsiya qilish. Yangi uy-joy massivlarini transport, maktab, kasalxona va kommunal tarmoqlar bilan birga rejalashtirish.

Jamoat transportini rivojlantirish. Yashil zonalar, ekologik barqaror hududlar yaratish.

Arzon uy-joy dasturlari davlat-xususiy sheriklik asosida ko'p qavatli, energiya tejamkor uylar qurish. Uy narxlarini barqarorlashtirish.

Qishloq joylarda yashash sharoitlarini yaxshilash. Internet, yo'llar, tibbiyot, ta'lim sifatini oshirish. Fermerlik va agroklastarlarni modernizatsiya qilish.

Urbanizatsiya bosimini yechimi — bu faqat yangi uylar qurish emas, balki hududlararo iqtisodiy muvozanat, zamonaviy infratuzilma, jamoat transporti, arzon uy-joy, raqamli xizmatlar va ekologik boshqaruvni yaxshilashdir.



Zich qurilishga barham berish yoki zich qurilgan hududlarni rekonstruksiya qilish — bu shaharsozlikda aholi zichligini pasaytirish, yashash sifatini yaxshilash va infratuzilmani tiklashga qaratilgan muhim jarayondir. Zich qurilishga barham berishning ijobiy natijalari shaharlar nafas oladi, tirbandlik va shovqin kamayadi, yashash sifati oshadi, infratuzilma yuklamasi kamayib, xizmatlar yaxshilanadi va nihoyat ekologiya va havo sifati yaxshilanadi.

Infrastruktura etishmovchiligi bartaraf etish – bu shaharlar va hududlarda transport, kommunikatsiya, suv ta'minoti, energiya, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi asosiy tizimlar yetishmasligini kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan bog'liq jarayon. Bu muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv kerak.

1. Transport infratuzilmasini rivojlantirish - jamoat transporti, yo'l va ko'priklar va piyodalar va velosiped yo'laklari.

2. Energiya va suv ta'minoti - elektr tarmoqlari - zamonaviy transformator punktlari, barqaror energiya manbalari (quyosh, shamol), suv va kanalizatsiya, suv nasoslari, filtratsiya tizimlari, chiqindi suvni qayta ishlash, gaz va isitish tizimi markazlashgan va mahalliy isitish tizimlarini modernizatsiya qilish.

3. Sog'liqni saqlash va ta'lim maktab va bog'chalar, aholining yashash joyiga yaqin bo'lishi, yetarli sig'im, poliklinikalar va shifoxonalar, aholi soniga mos keladigan xizmatlar, zamonaviy texnologiyalar, tibbiyot, onlayn ta'lim imkoniyatlari orqali xizmatlarni kengaytirish.

4. Shaharsozlikni rejalashtirish yangi hududlarda uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma va ish joylarini bir vaqtda rejalashtirish. Mahalliy xizmatlarni yaqinlashtirish va sig'imini oshirish.

5. Shaharsozlikda ekologik muammolar juda dolzarb masala hisoblanadi. Ularni qisqacha ko'rib chiqaylik va mumkin bo'lgan yechimlarni haqida fikr yuritganimiz:

Havo ifloslanishi transport vositalarining ko'pligi va chiqindilari. Sanoat korxonalari, issiqlik stansiyalari va qurilish changi.

Yechimlar - transportni rivojlantirish: jamoat transporti, velosiped yo'llari, elektromobillar. Sanoat chiqindilarini kamaytirish, filtrlar o'rnatish. Shahar hududlarini ko'kalamzorlashtirish, daraxtlar ekish.

Suv resurslarining ifloslanishi - kanalizatsiya va chiqindi suvlarni to'g'ri tozalamasdan oqizish. Kimyoviy va sanoat chiqindilari.

Yechimlar - Suvni tozalash inshootlarini rivojlantirish. Suvni tejash texnologiyalarini joriy etish. Suv havzalarini muntazam nazorat qilish va ifloslanishni kamaytirish.

Qattiq chiqindilar va atrof-muhit ifloslanishi - uy-joy va sanoat chiqindilarining noto'g'ri utilizatsiyasi. Plastik va boshqa qayta ishlanmaydigan materiallar.

Yechimlar - qayta ishlash va ajratish tizimlarini kengaytirish. Shahar hududida chiqindilarni kamaytirish va ekologik ongini oshirish. Kompostlash va organik chiqindilarni ishlatish.



Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston shaharsozligi va arxitekturasidagi asosiy muammolar urbanizatsiya jarayonining tezligi hamda rejalashtirish va boshqaruvning yetarlicha tizimlashtirilmaganligi bilan bog'liq. Davlat tomonidan bu sohada islohotlar va yangi normativ-huquqiy bazalar yaratilib borilayotgan bo'lsa-da, amaliyotda kompleks yondashuv, professional arxitektorlar maktabi, sifat nazorati va ekologik mas'uliyatni kuchaytirish zarurligi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu yo'l bilan O'zbekiston shaharlarini zamonaviy, qulay, xavfsiz va estetik jihatdan jozibador urban makonlarga aylantirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son qarori.
2. D. D. Davlatov Zamonaviy arxitektura: shaharsozlik va barqaror taraqqiyotdagi o'rni. <https://zenodo.org/records>.
3. SH.Abdullayev. "Arxitektura tarixi va nazariyasi". O'quv qo'llanma.T., 2000y.
- 4.A.O.Ochilov -"Organization of Personnel Training in Universities of Uzbekistan using the Methods of Scheduling and Network Planning in Conditions of Self-Isolation". Journal of Education and Practice www.iiste.org ISSN 2222-1735 (Paper) ISSN 2222-288X (Online). <https://www.iiste.org/Journals/index.php/JEP/issue/view/>. Vol.13, No.11